

# PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA O'QUV - TARBIYA JARAYONIDA MEDIA TA'LIMNING O'RNI

**Davlatov Keldiyor Davlatovich**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Xorijiy tillar kafedrası mudiri

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada innovasion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini talabalarning o'zlari tomonidan baholashga qodirligi hamda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari – interfaol uslublari, innovasion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosligi haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar.** Axborot texnologiya, kommunikatsiya texnologiyasi, innovasion texnologiya, pedagogik texnologiya, mediata'lim, media texnologiya, mediapedagogika.*

## KIRISH

So'nggi yillarda globallashuv jarayonda mamlakatimizda ham mediata'limga alohida e'tibor qaratilmoqda. Butun jahonda globallashuv jarayonlari jadal tus olgan bugungi kunda zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari mamlakatimizda ta'lim sohasini yanada takomillashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi deyarli barcha ta'lim muassasalari kompyuterlar bilan ta'minlanmoqda. Bu texnologiya har soniyada millionlab vazifalarni bajarish imkoniga ega. Bular orasida mediata'lim uchun xizmat qiladigan dasturlar ham talaygina. Demak, undan ta'lim sohasini yanada takomillashtirishda ham samarali foydalanish davr talabidir.

Bugungi hayotimizni axborot texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin va ulardan amaliy faoliyatda keng foydalanib o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni boshqarishning optimal variantini yaratishga imkon beradi. Shu bilan birga bugungi intellektual salohiyatli avlod muntazam ravishda ilmiy-texnik taraqqiyot bilan tanishtirilib, borilmog'i lozim. Bu taraqqiyot bilan tanish bo'lish uchun bugungi kunda Respublikamizda keng imkoniyatlar mavjud va e'tibor har qachongidan ham yuqori bo'lmoqda. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik

texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi.

Bu esa talaba (yoki o'quvchi)dan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodali sifatlarni talab etadi. Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, talaba (yoki o'quvchi)ni kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganiga bog'liq. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovasion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari – interfaol uslublar, innovasion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanilishiga oid bilimlar, tajriba talaba (yoki o'quvchi)larni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyaning har turli ta'riflari mavjud bo'lib, ulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz:

Texnologiya— biror ishda, mahoratda, san'atda qo'llaniladigan usullar, yo'llar yig'indisi. Texnologiya — ishlov berish, ahvolni uzgartirish san'ati, mahorati, qobiliyati, metodlar yig'indisi. (V. M. Shepel.)

Pedagogik texnologiya — o'qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisi va komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasi; u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat. (B.T. Lixachev.)

Pedagogik texnologiya — o'qituvchi mahoratiga bog'liq; bo'lmagan holda pedagogik muvaffakiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir. (V.P. Bepalko.)

Pedagogik texnologiya — ta'limning rejalashtiriladigan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti. (I. P. Volkov.)

Ta'lim texnologiyasi — didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismi. (A. Choshanov.)

Pedagogik texnologiya — o'quv jarayonining o'quvchilar va o'qituvchi uchun so'zsiz qulay sharoitlar ta'minlashni loyihalash, tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha hamma detallari o'ylab chiqilgan birgalikdagi pedagogik faoliyat modeli.

(V. M. Monaxov.)

Pedagogik texnologiya — texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi uqitish va bilimlarni o'zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniklashning tizimli metodi (YUNESKO).

#### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Media ta'lim inglizcha "Media Education" so'zidan olingan bo'lib, lotincha media- "Omil" deganidir. Media ta'lim talabalarga ta'lim berish jarayonida yangicha usullardan foydalanishni talab etadi. Pedagog olimlar, mediata'lim-talabalarga beriladigan dars, bilim, ma'lumotning tez, tushunarli va yodda qolarli bo'lishini ta'minlovchi ta'lim usuli ekanini e'tirof etganlar. Talaba o'qituvchining og'zaki ma'ruzasidan ko'ra, ko'rgazmali vositalardan foydalanib tushuntirishidan ko'proq ta'sirlanar ekan. Ana shunda ular yetkazilayotgan mavzuni ko'proq yodida saqlab qoladi. Talabalarda bunday darslarga nisbatan qiziqish yuqori darajada bo'ladi. Demak, dearli barcha fanlarni o'qitishda bunday ilg'or usuldan foydalanish foydadan holi bo'lmaydi. Mediata'lim- talabalarga ta'lim berish jarayonida yangicha usullardan foydalanishni talab etadi.

Mediapedagogika – yangi pedagogik texnologoya hisoblanadi, u ommaviy axborot vositalari yordamida talabalarni ijodiy fikrlashga, tarbiyalashga imkon beradi. Mediapedagogika resurslariga: internetdagi ma'lumotlar, televideniya, radio lavhalari, kino, video, audio bilan cheklanib qolmay, kutubxona va muzeylar, badiiy va san'at asarlari, ko'rgazma zallari kabi vositalarni ham qamrab oladi.

Globallashuvning ijobiy jihatlari ko'p. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" kitobida qayd etilganidek, axborot sohasidagi globallashuv insoniyat uchun, dunyoning barcha hududlaridagi odamlarning o'zaro muloqoti uchun, ilm-fan va madaniyat boyliklarini o'zlashtirish uchun, ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayon hisoblanadi. Kezi kelganda aytish joizki, globallashuv jarayonlarida ana shu axborot texnologiyalaridan ba'zi yovuz kuchlar g'arazli maqsadlarda foydalanayotganlaridan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Ular o'z sa'y-harakatlari bilan kishilarning tinch-farovon hayotiga raxna solayotganlari tashvishli holdir. Internet orqali uyushtirilayotgan axborot xurujlari yoshlar ongini zaharlashi ularning kelajagiga bolta urishdan boshqa narsa emas. Shunday sharoitda biz bu zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalaridan ko'proq ijobiy maqsadlarda foydalanish yo'llarini topishimiz maqsadga muvofiqdir. Ana shunday samarali yo'llardan biri – ta'lim sohasini media texnologiyalari bilan yanada takomillashtirishdir.

O'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)ning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki xar ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda talaba (yoki o'quvchi)larning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film (yoki tarqatma material, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar) kerak bo'lar. Bularning hammasi o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)larga bog'liq.

Shu bilan birga o'quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, talaba (yoki o'quvchi)larning imkoniyati va ehtiyojini va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqacha aytganda, talaba (yoki o'quvchi)ni ta'limning markaziga olib chiqishi kerak.

Demak, mediata'lim talabalarning intellektual salohiyatini oshirish bilan bir qatorda ularni turli mafkuraviy tajovuzlardan asrashda ham muhim o'rin tutadi.

Media ta'limning jamiyat hayotidagi o'rni va uni ta'lim sohasiga keng joriy etish yoshlarni globallashuvning salbiy ta'siridan asrash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asoslarini ularga keng tushuntirish, yoshlarimizning ongu shuuriga milliy qadriyatlarga ehtirom tuyg'usini singdirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentning Barkamol avlod yili "Davlat dasturi to'g'risida"gi "Barkamol avlod yili", Davlat dasturi. – T.; "O'zbekiston", 2010.
2. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Ishmuxamedov. R va boshqalar Ta'limda innovasion texnologiyalar T., 2008.
4. Ishmuxamedov.R Innovasion texnologiyalar yordamida davlat samaradorligini oshirish yo'llari T., 2005.
5. Tolipov.U Pedagogik texnologiyalarni tatbiqiy asoslari T. 2006.
6. Sayidaxmedov.N Yangi pedagogik texnologiyalar T., 2003.
7. Azizzadjayev N.N Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat T. 2010.

#### **INCORPORATING PARALLEL CORPORA IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES: REVIEW OF THE PREVIOUS WORK DONE IN THE FIELD**

**Hasanova Gulhida Abdulzaiz qizi**

**PhD student**

Uzbekistan state world languages university  
Tashkent, Uzbekistan

***Abstract.** Since the compilation of the first language corpus (1961) till today a relatively linguistic discipline called corpus linguistics has achieved enormous amount of advancements in the field that now plays great role in current linguistic*